

TOSHKENDAGI MADRASA VA JADID MAKTABLAR FAOLIYATI

Kimsanboyeva Zuhra Abdulkarimovna

**O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi 1-son Toshkent akademik litseyi
Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida tarix fani yetakchi o'qchituvchisi**

Toshkent shahrining tadqiq etilayotgan davrdagi xalq ohvoli sifatidagi statistik ma'lumotlar muhimdir. 1886 yilgi ma'lumotga ko'ra, shaharda xalq ta'limining yo'lga qo'yilishi va rivojlanishiga Duma o'z xissasini qo'shib kelgan. Duma uning faoliyatini nazorat qilish bilan birga maorif xarajatlariga mablag' ham ajratgan. 1886 yili Duma o'z budjetidan xalq ta'limiga 10410 rubl sarflagan¹.

XX asrda xalq maorifi tarmoqlari yanada ko'paydi, shaharda erkakalar gimnaziyasi, ayollar bilim yurti, xususiy maktablar va rus-tuzem maktablari faoliyat ko'rsata boshladi. 1911 yilgi ma'lumotga ko'ra, shaharda jami 48 ta turli hil o'quv turlari bo'lganligi ta'kidlangan. Biroq Toshkentning yangi shahar qismi xayoti keng yoritilgan bolib eski shahar to'g'risida ba'zi hollarda materiallar berib borilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligining markazi sifatida siyosiy xayotda ham muhim rol o'ynagan. Bular asosan arxiv fondlari, "Turkiston general-gubernatorlik konstlyariyasi" jamg'armasi (1-fond), "Turkiston diplomatik amaldori" jamg'armasi (2-fond) larda ma'lumotlar beriladi.

Bu vaqtda Toshkentning Turkiston aholisi uchun ma'naviy-madaniy markaz sifatidagi ahamiyati toboro ortib bordi. Bu yerda musulmon sharqida, xususan, yaqin atrofdagi mamlakatlarda paydo bo'lgan islohatchilik harakatlari xabarlar kirib kela boshlagandi. XIX asr oxiridan boshlab Toshkent jadidchilik nomi ostida shakllanayotgan ma'rifatchilik xarakatining markazi bo'lib qoldi. jadid yangi degan ma'noni bildirardi.

Turkiston taraqqiyparvar ziyolilari o'lkaning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi tufayli ilg'or mamlakatlardan siyosiy va iqtisodiy jihatdan qoloqligini anglab xalqni ma'rifatli qilishni o'zining birinchi galdagi vazifasi deb xisobladi. Ular Sharq va G'arb madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini uyg'unlashtirishga urinib, o'z oldiga ikkita eng asosiy maqsadni qo'ydi:

¹

1. Xalq turmush darajasini rivojlangan mamlakatlardagi turmush darajasiga yetkazish

2. Turkistonda milliy-demokratik davlat barpo etish.

Toshkent jadidchilik harakatining markazi bo`lib qoldi. Bu harakarga Mahmudxo`ja Behbudiy bilan birga toshkentlik taniqli jamoat va siyosat arbobi, jurnalist va pedagog Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qildi².

Toshkentning ilg`or ziyolilari qatorida xalq hurmatiga sazovar ma`rifatchilar Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo`ja Asadullaxo`jayev, Saidrasul Saidazizov va boshqalar kiradi. Ular yangi usul maktablari ochish, darslik, teatr truppalari, ma`rifiy jamiyatlar tuzish, gazetalar nashr etish kabi ishlarga boshchilik qildilar.

“Namuna” deb atalgan ana shunday maktablardan birini Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov tashkil etdi. Toshkentda 1910 yili jami 11 ta maktab ish olib bordi³.

Toshkentdagi madaniy muhitning shakllanishida maktab va madrasalarning o`rni kata bo`lgan. Asosiy ta`lim maskanlari esa madrasalar edi. Ta`kidlash joizki, qator madrasalarda tahsil olgan Muhammad Solixxo`ja uzoq yillar o`z imomlik qilgan masjid qoshidagi maktabda bolalarga ta`lim berish bilan ham mashg`ul bo`lgan. Chunki, o`sha vaqtlarda Turkiston o`lkasida yani, Toshkentda maktablar asosan, masjidlar qoshida ochilgan va masjid imomi muallimlik qilgan. 1868 yilda Toshkentda bo`lgan A.P. Xoroshinning mahalliy aholi vakillaridan olgan ma`lumotiga ko`ra, o`g`il va qiz bolalar maktablari alohida bo`lgan.

Turkiston general-gubernatorligi Maorif boshqarmasi ma`lumotiga ko`ra, 1890-1893 yillarda Turkistonda jami 214 ta madrasa bo`lib, 21 tasi Toshkentda joylashgan. Rossiya imperiyasining istilosining dastlabki yillarida madrasalardagi ta`lim va o`qitish ishlari an`anaviy tartibda belgilangan qoida asosida olib borilgan bo`lsa, keyinchalik ularning faoliyatini nazorat qilish va o`quv-ishtarini tartibga solishni Turkiston general-gubernatorligi O`lka maorif boshqarmasi o`z qo`liga olgan⁴.

²D.A. Alimova, M.I. Filanovich Toshkent tarixi (Qadim davrdan bugungi kungacha) Qayta ishlangan va to`ldirilgan ikkinchi nashri T.: 2009. B.65

³ O`sha joy.

⁴ СУЛТОНОВ У, Мухаммад Солиххужа ва унинг «Тарихи Жадидаи Тошкент» Тошкент » Ўзбекистон 2009.205-207 б.

Bu paytda Toshkentda Abdulqosimxon madrasasida 120ta, Xoja Axror madrasasida 80 ta, Sharafiboy madrasasida 20ta, Shukurxon madrasasida 20ta talaba o`qigan.

Toshkent shahridagi 11 ta yangi usul maktablari

№	Ta`sis etgan shaxs ismi-familiyasi	Domlalar soni	Bolalar soni
1	Munavvarqori Abdurashidxonov	3	160
2	Eshonxo`ja Xonxo`jaye	2	90
3	Abdulla qori Mulla Sadulla	2	150
4	Nizomiddin qori Xusainov	2	80
5	A`zamon Abdurashidov	1	46
6	Yusuf-Mullaxon Muhammedov	3	55
7	Sobirjon Raxim o`g`li	4	70
8	Rustambek Yusufxo`ja o`g`li	3	80
9	Abdushokir Musaboy o`g`li	2	80
10	Abdullaxon Ibragimxon o`g`li	3	65
11	Inayatulla qori mirzajon o`g`li	1	120

Jadidchilik harakatining ibtidosi bo`lgan jaded maktablari vujudga kelgan birinchi kundanoq har bir to`siqlarni yengib o`tishga majbur bo`ldi. Bu to`siqlar Chor ma`muriy apparati va mahalliy musulmon mutaasiblari edi. Chorizm Turkistonni Rossiya uchun xom ashyo manbasiga aylantirgandan so`ng uni taraqqiy etishiga bo`lgan intilishiga qarshilik ko`rsatib keldi, chunki mahalliy aholining milliy madaniyatini rivojlanishiga Rossiyaning mustamlaka tuzumiga xavf tug`dirishi mumkin edi. Shuning uchun o`lkada chor ma`murlari Turkiston madaniy xayotidagi xar qanday o`zgarishlarni ehtiyotkorlik bilan kuzatib, turli g`ayri-qonuniy yo`llar bilan musulmon madaniyatiga zarar keltirishga harakat qildilar.

Turkistondagi yangi usul maktablarining yagona o`quv plani, Programmasi va darsliklari bo`lmagan, muallimlar o`zi tanlab olgan kitoblarni ishlatishgan:

1) Rustambek Yusuf o`gli (1888-1850) Toshkentlik Ko`kcha dahasiga qarashli Podaxona mahallasida ochgan maktabida bolalarni o`qish va yozishga o`zi yozgan "Ta`limi avval", "Ta`limi soniy" kitoblaridan foydalangan.

2) 2) Abdulla Avloniy Toshkentning Sapyor va Mirobod mahallalari burchagidagi masjid qoshida ochgan maktabida o`zbek bolalariga o`zi yozgan "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Adabiyot" va boshqa kitoblardan foydalanib xat-savod o`rgatgan⁵.

⁵ Шамсутдинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалар тарихи (XIX аср охири-XX аср бошлари)
Андижон-1995. 94.б.